



## SURXONDARYONING CHUCHUK SUV HAVZALARIDA TARQALGAN NOYOB VA YO’QOLIB BORAYOTGAN BALIQ TURLARI VA ULARNI MUHOFAZA QILISH CHORA-TADBIRLARI

**Yaxshiboyeva Maftuna Xolmurat qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti o’qituvchi

**Musurmonova Sarvinoz Akram qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti Biologiya  
ta’lim yo’nalishi 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mamlakatimiz tabiatining hayvonot dunyosi xilma-xil va o’ziga xosdir. Har bir hayvon turi biosferada o’z ahamiyatiga ega. Shu tufayli hayvon turlarini ko’z qorachig’imizdek asrab-avaylashimiz lozim.

Xususan, Surxondaryo viloyati hududida ko’plab hayvon turlari uchraydi. Afsuski bugungi kunda ularning ayrimlari turli tashqi ta’sirlar natijasida soni kamayib, “noyob hayvon” maqomini olayotgan turlardir. Ushbu maqolada viloyat hududida tarqalgan baliqlarning noyob turlari, ularning soni, kamayishi sabablari, cheklovchi omillar hamda muhofaza qilish choralari bo’yicha ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** Baliqlar, noyob turlar, fauna, yashash muhiti, muhofaza, cheklovchi omillar, turlarning kamayish sabablari.

Tabiatda har bir hayvon va o’simlik turlarining o’z o’rni va ma’lum ahamiyatga ega. Baliqlar ham insonlar hayotida ko’pgina foydali xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, baliq — sayyoradagi eng sog’lom ovqatlardan biridir. Baliq va dengiz mahsulotlari inson tanasi uchun zarur bo’lgan oson hazm bo’ladigan protein manbai bo’lib, uglevodlar va yog’larning kam miqdori tufayli parhez mahsulot hisoblanadi. Bugungi kunda boshqa hayvon turlari singari baliqlarning ham ko’pgina turlari soni kamayib “noyob tur” maqomini olmoqda. Quyida viloyat suv havzalarida uchrovchi



noyob baliq turlari va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini keltirib o'tamiz.

Bakra Amudaryoning quyi va o'rta oqimlarida hamda unga quyiladigan Sherobod va Surxon daryolari irmoqlarida uchrashi aniqlangan. Ularning soni kamayib ketishiga asosiy sabab, Orol dengizi suv sathining pasayishi, suvining sho'rlanishi hamda unga quyiladigan daryolarning tabiiy suv rejimining o'zgarishi hisoblanadi. Bundan tashqari, 1936-1937 yillarda baliqlarning yoppasiga kasallikka chalinishi, brakonerlik ham bakra baliqlarining soni sezilarli darajada kamayib ketishiga olib kelgan.

Amudaryo katta kurak buruni Amudaryo havzasining Surxondaryo viloyati hududidagi suvi tez oqadigan qismida, daryoning chuqurligi 2-3 m, tubi qum va loyli joylarida saqlanib qolgan. Bu turning soni kamayib ketishiga asosiy sabab Amudaryo suv oqimining sun'iy tartiblanishi natijasida tabiiy suv rejimining o'zgarishi, suvning ifloslanishi, ko'payish sharoitlarining yomonlashishi, brakonerlik (go'shti juda mazali) hisoblanadi.

*Ovlash ta'qiqlangan. Surxon qo'riqxonasida muhofaza ostiga olingan.*

Amudaryo kichik kurakburuni Amudaryoning Surxondaryo viloyati hududidagi qismida daryoning tekis oqadigan, chuqurligi 2-3 m, tubi qumli va loyli joylarida hamda Surxon daryosining Amudaryoga quyilish joyida saqlanib qolgan. Ushbu noyob turning soni kamayib ketishiga sabab asosan, Amudaryo oqimining sun'iy tartiblashtirish natijasida tabiiy suv rejimining o'zgarishi, suv ifloslanishi, ko'payish sharoitining yomonlashishi, brakonerlik hisoblanadi.

Amudaryo gulbalig'i viloyatimiz hududida Amudaryoning yuqori qismi hamda Surxondaryo, Sangardak, To'palang daryolari havzasida, daryolarning tez oqadigan, suvi sovuq va tubi tosh-shag'alli joylarida uchraydi. Amudaryo gulbalig'ining keyingi o'n yilliklar davomida keskin kamayib ketishiga ular yashaydigan daryolar oqimining sun'iy tartiblanishi va uning ifloslanishi, rekreatsion faoliyat, brakonerlik sabab bo'lgan.

Sharq oqchasi (qorako'z) Surxondaryo hududida Amudaryoning o'rta oqimida, tubi qumli va toshloq joylarida uchrashi aniqlangan. Ularning soni kam. Bu baliq turining soni kamayib ketishiga Orol dengizi sathining pasayishi va suvining sho'rlanishi, daryolar oqimining sun'iy tartiblanishi va suvining kamayishi, uning ifloslanishi, bundan tashqari,



yashash va ko'payish sharoitlarining yomonlashishi sabab bo'lgan.

Orol mo'ylabdori (so'g'yon, so'zanbaliq) Amudaryoning o'rta oqimlarida, daryoning chuqurligi 2-4 m, tubi qumli va toshloq bo'lgan joylarida uchrashi aniqlangan. Ular loyqa oqar suvlarda, kamdan-kam hollarda oqmas suv havzalarida yashaydi. Orol mo'ylabdorining soni keskin kamayib ketishiga ular yashaydigan daryo oqimining sun'iy tartiblanishi natijasida Orol dengizi hamda unga quyiladigan daryolarning tabiiy suv rejimining o'zgarishi, ya'ni mazkur daryolarning suvining sho'rlanishi, ko'payish sharoitlarining yomonlashuvi va brakonerlik sabab bo'lgan.

Turkiston mo'ylabdori Surxondaryoning o'rta oqimlarida daryoning chuqurligi 2-3 metr, tubi qumli-toshli yoki qumli-shag'alli joylarida hamda Uchqizil, Janubiy Surxon suv omborlarida uchrashi aniqlangan. Bu turning kamayishiga ular yashaydigan suvning ifloslanishi, buning oqibatida esa ko'payish sharoitlarining yomonlashuvi, bundan tashqari turli iqlimlashtirilgan baliqlar raqobati va brakonerlik sabab bo'lgan.

Cho'rtansifat oqqayroq Amudaryoning o'rta oqimida hamda ularning ayrim irmoqlarida, Surxon va Sherobod daryolarida uchrashi aniqlangan. Ularning soni keskin kamayib ketishiga sabab, ular yashaydigan daryolar oqimining sun'iy tartiblanishi oqibatida tabiiy suv rejimining o'zgarishi, suvning ifloslanishi, ko'payish sharoitlarining yomonlashuvi va brakonerlik hisoblanadi.

Orol parragi Amudaryoning yuqori qismidan to etagigacha, bundan tashqari viloyatimiz hududida Surxondaryoning o'rta va quyi oqimidagi suv havzalarida, loyqa oqar suvlarda yashashi aniqlangan. Parraklar sonining keskin kamayishiga ularning asosan yashash muhiti hisoblangan daryolar oqimining sun'iy tartiblanishi natijasida tabiiy suv rejimining o'zgarishi, suvning ifloslanishi, bundan tashqari daryolardagi kelgindi baliqlar raqobati sabab bo'lgan.

Orol tikanagi Amudaryoning yuqori oqimidan quyi qismigacha bo'lgan havzalarida, To'palang, Sangardak daryolarida, daryo va ko'llarning sayoz qo'ltiqlari, buloqlarda, ularning tubi qumli-balchiqli joylarida uchrashi aniqlangan. Bu noyob jonivorlarning soni kamayib ketishiga ular yashaydigan daryolar oqimining sun'iy tartiblanishi natijasida tabiiy suv rejimining o'zgarishi, suvning ifloslanishi, bundan tashqari kelgindi baliqlar



raqobati sabab bo'lgan.

Turkiston laqqachasi viloyatimiz hududida Sheroboddaryo, Surxondaryo daryolarining yuqori oqimlarida hamda Sangardak, To'palang, Xo'jaipok daryolarining tog' va tog' oldi qismlaridagi tubi toshloq, tez oqar joylarida uchraydi. Ular sonining keskin kamayib ketishiga ular yashaydigan daryolar oqimining sun'iy tartiblanishi natijasida tabiiy suv rejimining o'zgarishi, suvning ifloslanishi, sellar, rekreatsion faoliyati, noqonuniy ovlash hamda kelgindi baliqlar raqobati sabab bo'lgan.

Orol tikanagi Amudaryoning yuqori oqimidan quyi qismigacha bo'lgan havzalarida, To'palang, Sangardak daryolarida, daryo va ko'llarning sayoz qo'ltiqlari, buloqlarda, ularning tubi qumli-balchiqli joylarida uchrashi aniqlangan. Bu noyob jonivorlarning soni kamayib ketishiga ular yashaydigan daryolar oqimining sun'iy tartiblanishi natijasida tabiiy suv rejimining o'zgarishi, suvning ifloslanishi, bundan tashqari kelgindi baliqlar raqobati sabab bo'lgan.

#### Tavsiyalar

- Har bir noyob deb hisoblangan baliq turini muhofaza qilish ishlarini tashkil etishda eng avvalo, shu turning o'ziga xos biologik, ekologik, etologik xususiyatlarini yetarlicha tadqiq qilish lozim.
- Baliq turlarini iqlimlashtirishda shu yangi turning o'ziga xos barcha biologik va ekologik xususiyatlarini, xulq-atvorini chuqur o'rganish lozim. Chunki yangi kirib kelgan tur bilan mahalliy turlar o'rtasida turli noqulay munosabatlar yuzaga kelib, natijada u yoki bu tur vakillari ziyon ko'rib, ular sonining kamayishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Noyob hisoblangan baliq turlari tarqalgan hududlarda yashovchi aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish lozim.
- Viloyat hududida noqonuniy ov qilishni kuchli nazorat qilish, brakonerlarga nisbatan shafqatsiz chora-tadbirlarni qo'llash vaqti keldi deb hisoblaymiz.
- Ov muddatlarini imkoni boricha qisqartirish, hayvonlarning ko'payish davrlarini aniqlab, shu vaqtlarda ov qilishni butunlay cheklash zarur.
- Noyob baliq turlari yashash joylarida ularni ko'paytirish choralarini ishlab chiqish,



- tizimli, maxsus muhofaza tartibini joriy etish orqali muhofaza qilish mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlarni o'rganib chiqqan holda, shularni aytishimiz mumkinki, Surxondaryoda 19 ta avlod, 8 ta oilaga tegishli 24 baliq turlari mavjud. Ulardan 4 turi noyob tur sifatida TMXI Qizil ro'yxatiga, 3 turi SITES ning II- Ilovasiga va 11 turi “O'zbekiston qizil kitobi” ga kiritilgan. 5 turi Surxon qo'riqxonasida muhofaza ostiga olingan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. 2-tom. Toshkent. —Tasvir|| nashriyoti, 2019.392 b.
2. Bekmurodov A.S. Surxondaryoning noyob hayvonlari. Toshkent. —Niholl|| nashriyoti. 2018 yil. 88 b.
3. Bekmurodov A.S. Surxondaryoning noyob va yo'qolib borayotgan hayvonlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari // “Tuproq va atrof muhit muhofazasi” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Termiz. 2020. 145-147 b.
4. Yaxshiboyeva M., Ramozonova O. NA'MATAK–Rosa (Cynosbatum) O'SIMLIGININ DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA INSONLAR HAYOTIDA TUTGAN O'RNI //Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar. – 2023. – T. 1. – №. 1. – С. 163-165.
5. Туропова М.Б., Бекмурадов А.С., Яхшибоева М.Х., ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФИТОНЕМАТОД ПЛОДОВЫХ КУЛЬТУР СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ УЗБЕКИСТАНА. “Biologiyada zamonaviy tadqiqotlar: muammo va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2022/12/10. 220-223 b.
6. Yaxshiboyeva , M., & Bekmurodov , A. (2023). ЖАРҚЎРҒОН ТУМАНИ ТУТ ПЛАНТАЦИЯЛАРИНИНГ НЕМАТОДАЛАР ФАУНАСИ. *Biologiyaning Zamonaviy Tendensiyalari: Muammolar Va Yechimlar*, 1(2), 315–319.
7. Yaxshiboyeva , M., & Eshdavlatova, G. (2023). SURXONDARYO VILOYATI SUV HAVZALARIDA TARQALGAN NOYOB BALIQ TURLARI VA ULARNI



MUHOFAZA QILISH CHORALARI. “Biologiyada zamonaviy tadqiqotlar: muammo va yechimlar” 1(2), 337–341.

8. Yaxshiboyeva , M., & Abdullayeva , K. (2023). O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI. “Biologiyada zamonaviy tadqiqotlar: muammo va yechimlar”, 1(4), 670–673.
9. Қулматов К. А., Қулмаматова С. Я. Қ. ПИРОФОСФАТЛАР ЎСИМЛИК УЧУН ЎҒИТ СИФАТИДА //Интернаука. – 2019. – №. 45-2. – С. 89-90.
10. Саидов, М., Қорабоева, Д., Қулматов, К., & Тоғаев, А. (2019). ЦИТРУС ЎСИМЛИКЛАРИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ, ТАРҚАЛИШИ ВА ДОРИВОРЛИК хусусиятлари. Интернаука, (45-2), 97-100.
11. Саидов, М., Бобоева, Н., Қулматов, К., & Тоғаев, А. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА ЦИТРУС ЎСИМЛИКЛАРИНИ ЕТИШТИРИШ АГРОТЕХНОЛОГИЯСИ. Интернаука, (5-2), 48-49.
12. Kulmatov K., Turaev K., Djalilov A. Hydrogels Based on Rice Starch, Acrylic-and N, N'-Methylenbi Sacrylamide, Metacrylamides and Their Use in Agriculture //Journal of Advanced Zoology. – 2023. – Т. 44.
13. Tojiyeva F., G‘aniyeva G. Binafsharang qalqondori - *Parlatoria oleae* (Colvée, 1880) ning biologik xususiyatlari va zararlilik darajasi //Research Focus International Scientific Journal, 2023, №2/6, 12-14.
14. Anvarovna T. F. et al. So‘ruvchi Zararkunandalardan-Aphididae oilasi vakillarining turlari, bioekologik xususiyatlari //Scientific Approach To The Modern Education System. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 51-54.
15. Anvarovna T. F. The main pests of grain orchards of surkhandarya region. – 2021.
16. Anvarovna T. F. The Main Pests Of Seed Orchards Of Surkhandarya Region //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2024. – Т. 30. – С. 8-9.
17. Baxriddinovna R. U., Musurmonovich F. S. Soybean-as a source of valuable food //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 6. – С. 165-166.



18. Musurmonovich F. S., Komiljonovna X. S., Qudrat o'g'li S. A. Some Photosynthetic Indicators of Soybean Varieties //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – T. 5. – С. 255-257.
19. Фозилов Ш. М. Периодичность роста и формирования урожая у внутривидовых форм пшеницы //Интернаука. – 2019. – №. 45-1. – С. 18-20.
20. Baxriddinova R. U., Musurmonovich F. S. Distance Learning System in Educational System Instead, and Significance //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 21. – С. 11-13.
21. Normuminovna Q. D., Musurmonovich F. S. Bioecological Properties of Salvia Officinalis L //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – T. 6. – С. 249-252.
22. Baxriddinova R. U. Methodology For Solving Problems of Food Chains and Ecological Pyramids and Its Significance //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2024. – T. 28. – С. 19-22.
23. Fozilov S., Ziyodova M. MAKTABLARDA STEAM TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISHNING XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI //Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar. – 2023. – T. 1. – №. 5. – С. 819-821.
24. Fozilov S. THE EFFECT OF DROUGHT ON THE WATER REGIME IN THE LEAVES OF SOYBEAN VARIETIES //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 9. – С. 25-28.
25. Fozilov S. EFFECT OF STRESS FACTORS ON SOME PHYSIOLOGICAL PARAMETERS OF SOYBEAN PLANT //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 7. – С. 722-74.
26. Ravshanova U. B. et al. SOYA O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM MANBAI SIFATIDA //Экономика и социум. – 2022. – №. 11-1 (102). – С. 81-84.
27. Musurmonovich F. S. et al. PECULIARITIES OF THE INTENSITY OF PHOTOSYNTHESIS AND TRANSPIRATION OF SOY LEAVES //Ann. For. Res. – 2022. – T. 65. – №. 1. – С. 5371-5378.



28. Musurmonovich F. S., Alisherqizi M. A. Photosynthetic Indicators of Different Shade Varieties Growing in Surkhandarya Region. – 2023.
29. Musurmonovich F. S., Baxriddinova R. U. SOYA BARGLARIDA FOTOSINTEZ VA TRANSPIRATSIYA JADALLIGINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 268-272.
30. Baxriddinova R. U., Musurmonovich F. S. MAKTABDA TABIIY FANLAR, TEXNOLOGIYA, MUHANDISLIK, SAN'AT VA MATEMATIKA FANLARINI UYG 'UNLIKDA O 'QITISHNING AFZALLIKLARI //NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 259-263.
31. Baxriddinova R. U., Musurmonovich F. S. OZIQ ZANJIRI VA OZIQ TO 'RI TUZISH //NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 264-267.
32. Musurmonovich F. S., Baxriddinova R. U. OQSIL TAQCHILLIGINI TA'MINLASHDA SOYA O 'SIMLIGINING O 'RNI //NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 254-258.